

MUSIQA TA'LIMINING TARBIYAVIY AHAMIYATI.

Yulyaxshiev Sherali Narzullaevich

Guliston davlat pedagogika instituti katta o'qituvchisi

Annotatsiya: maqolada o'sib kelayotgan yosh avlod tarbiyasida, uni shaxs sifatida barkamol bo'lib etishishida musiqaning roli va ahamiyati, qadimgi davrlardan to xozirgi kunagi ahamiyati xususida taxliliy ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: shaxs, tarbiya, ta'lim, musiqa, dars, mashg'ulot, san'at, pedagogika.

Bugungi kun musiqa o'qituvchilarining dars mashg'ulotlarini interfaol texnologiyalardan etarli darajada foydalanilmayotganligi mazkur amaliy- ijodiy jabha bilan birga, uning nazariy-ilmiy asoslarini ishlab chiqish bugungi kun va kelajagimizning dolzarb ehtiyojlaridan biridir. SHaxsni shakllantirishda birinchi navbatda o'sib kelayotgan yosh avlodning tarbiyalash jarayonida musiqaning o'rnini aniqlashdan iboratdir. Musiqa yoshlarning tarbiyasida muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Ularning aqliy hamda axloqiy rivojlanishida katta ijobiy ta'sir etish imkoniyatlari ko'proq. Bejizga, musiqa darslari eng avvalo tarbiya darsi ham deyilmaydi. Oliy ta'lim muassasalari pedagogika sohasi musiqa ta'limi yo'nalishlarida ta'lim olayotgan talabalarga o'zbek xalq musiqa tarixi, madaniyat va ma'naviyat sohalari, san'atning turli yo'nalishlari va janrlari, shu jumladan, badiiy ijodiyot shakllari ko'p jihatdan o'zbek san'ati merosi bilan yaqindan tanishib olishga imkoniyat beradi. Fanni o'zlashtirishdan kelib chiqadigan vazifalar – talabalar san'atning turli yo'nalishlari bo'yicha bilimlarga ega bo'lganliklarini namoyish etadilar.

Prezident SH.Mirziyoev “Adabiyot va san'at, madaniyatni rivojlantirish – halqimiz ma'naviy olamini yuksaltirishning mustahkam poydevoridir” mavzusida davlatimiz ziyolilari bilan uchrashuvida “madaniyatimiz va san'atimizni rivojlanish hamda bu boradagi ijobiy tendensiyalar bilan

birga, ayrim salbiy holatlar, ularning jamiyat hayotidagi ta'sirini xolisona va tanqidiy baholab, o'z echimini kutayotgan dolzarb muammolar va ularni bartaraf etish masalasini

ko'ndalang qo'ydilar. Ijodiy uyushmalar, Madaniyat vazirligi hamda uning tarkibidagi birlashma va tashkilotlar faoliyatini chuqur tahlil etib, ijodkor ziyolilarning bugungi kunda jamiyat hayoti, islohotlar jarayonidagi o'rni va vazifasini oshirish deb ta'kidlab o'tdilar. Mustaqil taraqqiyot yillarida to'plangan tajriba, dunyoqarash jamoatchiligi o'zbek modeli deya e'tirof etgan o'zimizga mos taraqqiyot yo'li – kelajagi buyuk davlat barpo etish borasida amalga oshirilayotgan barcha tarixiy o'zgarish va yangiliklar xalqimiz qalbi ongi va g'ururiga ulkan ta'sir ko'rsatmoqda.

Buyuk alloma Abu Ali ibn Sino o'zining barkamol shaxsni tarbiyalash g'oyasida musiqani asosiy vosita sifatida ta'riflaydi. Tarixdan ma'lum, milliy ma'naviyatimizning asosiy bo'g'ini bo'lgan musiqa san'ati, musiqa madaniyati, an'anaviy xonandalik asarlari, maqom ijrochiligi hamisha xalqimizning kundalik hayotida ma'naviy ozuqa sifatida e'tirof etib kelingan. Xalq og'ir kunlarida musiqadan najot izlagan, xursandchilik kunlarida ham qo'shiq va musiqa ularga hamroh bo'lgan. Zero, bugungi globallashuv kabi bir davrda ulkan ma'naviyatimizning bir bo'lagi bo'lgan, ota- bobolarimizdan meros bo'lib kelgan milliy musiqiy madaniyatimizga suyanish, an'anaviy qo'shiqlarimizga murojaat qilish, eng asosiysi o'zbek xalq musiqa tarixi asosida shaxsni barkamol qilib tarbiyalashda foydalani tabiiy bir holdir. Bularning barchasi barkamol avlod tarbiyasida, yoshlarning ma'naviy dunyoqarashini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. An'anaviy musiqa va qo'shiqlarimiz odamlarni hamisha iymonga, mehr-oqibatga, odamiylikka chorlab kelgan. Bugungi kunda ham shu dolzarbligini yo'qotmagan holda mustaqillikka, mehnatkashlar ongini shakllantirish yo'lida, barkamol avlod tarbiyasida vosita sifatida asosiy omillardan bo'lib qolaveradi.

“Musiqa – millat ruhining tili, musiqa – millat his-tuyg'ularining tarjimonidir. SHuning uchun faqat estetik tarbiyada emas, axloqiy, ma'naviy, ruhiy, hattoki, diniy-ilohiy tarbiyada musiqaning xizmatlari beqiyosdir” deb aytadi filologiya fanlari doktori, adabiyotshunos olim Ibrohim Haqqul o'zining adabiy suhbatlaridan birida va shu o'rinda Ibn Xaldunning ushbu fikrini eslatib o'tadi: “Musiqa bir san'at sifatida faqat ijtimoiy va madaniy jihatdan yuksalgan muhitlarda rivoj topadi. Iqtisodiy farovonlikka erishgan jamiyatlargina musiqaga kuchli ehtiyoj sezadi.

Inson shaxsini rivojlantirishda musiqa san'atining roli va pedagogik ahamiyati

xususida B.Asafev, YU.Aliev, O.Apraksina, T.Baklanova, L.Barenboym, O.Blox, N.Bryusova, N.Vetlugina, K.Golovskaya, N.Grodzenskaya, D.Kabalevskiy, E.Abdullin, L.Mazel, V.Medushevskiy, N.Mixaylovskaya, E.Nazaykinskiy, E.Nikolaeva, G.Novikova, K.Orf, V.Petrushin, O.Radshovalarning ilmiy ishlarida keng yoritilgan. O'zbekistonda musiqiy ta'lim-tarbiya bo'yicha XX asrning 60-90 yillarda H.Nurmatov, F.Jo'raev, R.Qodirov, Q.Mamirov, S.Annamuratova, T.Tursunov, mustaqillik davrida O.Ibroximov, N.Toshtemirov, Q.Panjiev va boshqalar tomonidan yaratilgan ilmiy ishlarda musiqiy ta'limning maqsad va vazifalari, musiqiy faoliyat turlari, musiqa ta'limida qo'llaniladigan qator an'anaviy usullar yoritilgan bo'lib, bunda musiqaning juda katta tarbiyaviy imkoniyatlari - musiqa o'qituvchisining jiddiy kasbiy tayyorgarligi o'quvchi shaxsiga hamda uning musiqiy- ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga bog'liqligi alohida ta'kidlab o'tilgan. Ammo insonga kuchli hissiy ta'sir ko'rsatish bilan bog'liq bo'lgan musiqa ta'limining tarbiyaviy potensialini yuzaga chiqarishda faqatgina an'anaviy metodlar va umumdidaktik tamoyillarga tayanib ish olib borish zamon talabiga javob bermay qo'ydi.

Musiqa asarlari mazmunida badiiy g'oyalar umumlashgan holda berilib, musiqali obrazlarning o'zaro munosabatlari (taqqoslanish, to'qnashuv, [rivojlanish](#) kabi) jarayonida shakllanadi. Mazkur jarayonning xususiyatlariga [ko'ra](#) musiqa mazmuni ham turli – epik, dramatik, lirik belgilarga ega bo'lishi mumkin. Bulardan insonning ichki dunyosi, ruhiy holatlarini ifodalashga moyil bo'lgan [lirika](#) musiqaning «botiniy» tabiatiga ancha yaqindir. Musiqaning mazmuni – shaxsiy, milliy va umumbashariy badiiy qiymatlarning birligidan iborat bo'lib, bunda ma'lum xalq, [jamiyat](#) va tarixiy davrga xos ruhiy tarovat, sur'at, ijtimoiy fikr va kechinmalar umumlashgan holda ifodalanadi.

Musiqa shakllari har bir davrning ma'naviy-ma'rifiy talablariga javob bergan holda, ayni vaktida inson faoliyatining ko'pgina jabhalari (muayyan jamoaviy tadbirlar, odamlarning o'zaro etik va estetik ta'sir etish, muloqot qilish jarayonlari) bilan mushtarakdir. Musiqaning, ayniqsa, insonning axloqiy va estetik didini shakllantirish, hissiy tuyg'ularini rivojlantirish, ijodiy qobiliyatlarini rag'batlantirish vositasi sifatida roli juda muhimdir. Ammo, [san'at](#) turi sifatida musiqa fakat ungagina xos bo'lgan xususiyatlar (masalan badiiy-estetik maqsadlarni ko'zlashi, [mazmun va shakl](#) badiiy [qiymat](#) sifatida

[kasb](#) etilishi, ayniqsa, musiqa tovushlarining muayyan musiqa tizimlarida tashkil etilishi) bilan nutkdan farq qiladi. Xar bir alohida olingan musiqa tovushi birlamchi ifodaviy imkoniyatga ega bo'lsada musiqa tovushlarining muvaqqat nisbatlari esa [baland- pastlik](#) munosabatlari [lad](#) tuzilmalarida, musiqiy [ritm](#) va metrda o'z aksini topadi. Dunyoning aksariyat xalqlari musiqa madaniyati, jumladan, o'zbek [musiqa](#) folklori, an'anaviy musiqa va [bastakorlik](#) ijodiyotida lad asosini turli ko'rinishdagi [diatonika](#) tashkil etadi. Kompozitorlik musiqada (ayniqsa, XX asrda rivoj topgan yo'nalishlarda) diatonika bilan birga xromatika ham keng o'rin olgan.

Musiqada asosiy badiiy vosita – [kuy](#) ([melodiya](#))dir. Musiqaning og'zaki an'anadagi ([monodiya](#)) uslublarida kuy badiiy obrazning yagona va tugal musiqiy ifodasi hisoblanadi. Ko'p ovozli kompozitorlik yo'nalishlarda garmoniya, [polifoniya](#) unsurlari ham muhim o'rin egallaydi. Musiqa asaridagi kuy ([mavzu](#))lar rivoji uning kompozitsiyasn ([shakl](#))ni tashkil etadi. [Musiqa shakli asar](#) mazmunining moddiy tajassumi va vujudga kelish vositasi bo'lib xizmat qiladi. Musiqa asarlari shakliga muntazam takrorlanuvchi tarkib va unsurlar xos bo'lib, bular badiiy mazmundagi o'zgaruvchanlik, harakatchanlik kabi xususiyatlarga ma'lum darajada ziddir. O'zaro [aloqa](#) va [birlik](#) doirasidagi bunday dialektik ziddiyatlar musiqa asarini yaratish va ijro etish jarayonidahamisha xilma-xil ravishda o'z echimini topadi. Turli xalqlar musiqa madaniyati va an'alarida Musiqaning barkaror va beqaror unsurlarining o'zaro munosabatlari ham o'zgachadir. Individual badiiy obrazlarni ifodalashga qaratilgan yozma an'anadagi kompozitorlik san'ati asarlari esa ko'proq aynan musiqiy rivojlanish qoidalariga, ya'ni tugallangan, yaxlit va barqaror shakllarga asoslanadi. SHuning uchun, kompozitorlik musiqada mazkur shakllarni ifodalashga hamda [ob'ektiv](#) holatda saqlashda asosiy omil bo'lgan [nota yozuvi](#) muhim o'rin tutadi.

Musiqa inson madaniyatida va jamoaviy hayotda o'ziga xos o'ringa egadir. U [dam olish](#) va ko'ngil ochish paytlari, turli marosim, bayram, [bazzm](#) va sayillar, diniy va rasmiy tadbirlar, ommaviy va harbiy yurishlar, [sport](#) mashklari va [mehnat](#) jarayonida muayyan vazifalar bajaradi. SHuning uchun musiqa asarlari o'z mazmuniga muvofiq holda bir nechta uslub, [tur](#) va [janr](#) guruhlariga ajratiladi. Alla, zikr, marsiya, sarbozcha, vals, marsh, [messa](#) kabi janrlar hayotdagi maishiy va b. sharoitlar bilan bog'liq bo'ladi. Ashula, dastgoh, cholg'u kuy, [maqom](#) yo'llari, konsert, miniatyura, [romans](#) va boshkalarda estetik

ta'sir o'tkazish vazifalari asosiy o'rin tutadi. Janrlar, o'z navbatida, diniy musiqa, yoshlar musiqasi, maishiy musiqa, ommaviy musiqa, harbiy musiqa, kamer musiqa, simfonik musiqa, [xor](#) musiqasi kabi musiqa turlariga birlashadi. Tarixiy, milliy, mahalliy, shaxsiy (individual) musiqa uslublari ham musiqiy [tafakkur](#) tarzi, ohang, ritm, shakl kabi musiqiy unsurlarni o'ziga qamrab olib, muayyan bir [davr](#) yoki milliy madaniyatga mansub bo'lgan turli janrdagi asarlar umumiyatini aks ettiradi (Avangardizm, Barokko, Klassitsizm, Og'zaki an'anadagi musiqa, Romantizm, [Sentimentalizm](#)). Insonning musiqa faoliyati asosan 3 bosqichda amalga oshiriladi: ijod, ijro va tinglash (o'quv). Har bir bosqichda asarning mazmun va shakli o'zgacha ko'rinishga ega bo'ladi. [Ijod](#) bosqichida badiiy [g'oya](#) va shakl [muallif](#) ongida mushtarak holda tug'iladi. Ijro jarayonida shakl va mazmun ijrochi tomonidan uning dunyokarashi, estetik tasavvurlari, shaxsiy [tajriba](#) va maxoratiga mos ravishda uzgartiriladi. Musiqa ixlosmandlari ham ijro etilayotgan asarni o'zlarining xususiy didi, hayotiy va badiiy tajribasiga asoslanib qabul qilishadi. SHunday qilib, musiqa faoliyati hamma bosqichlarda ijodiy tabiatga ega bo'ladi. Turli (kompozitorlik va og'zaki an'anadagi) uslublarda musiqa ijrochiligi ahamiyati turlichadir. Professional yunalishdagi [madaniyat](#) tizimida musiqa ko'pincha badiiy asarlarni ijro etadigan san'atkorlar faoliyati orqali [namoyon](#) bo'ladi. SHuning uchun musiqa ijrochi (sozanda, xonanda)larining aksariyati [kompozitor](#) va bastakorlarning haqiqiy hamkorlaridir. Ular ustoz-shogird munosabatlari jarayonida o'zlashtirgan yoki [nota](#) yozuvi yordamida o'rgangan asarlarni jonli ravishda tinglovchilar oldida [talqin](#) etadilar. Musiqiy [folklor](#) tizimida musiqa namunalari omma ongining badiiy mahsuloti sifatida yuzaga kelib, havaskor qo'shiqchi, sozanda yoki jamoaviy tarzda ijro etiladi. Musiqa ijrochiligi musiqa cholg'ulari hamda inson ovoz vositasida amalga oshiriladi. Bular yakka tarzda, ansambl, xor, orkestr kabi [birikma](#) shakllarida namoyon bo'ladi.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, musiqa inson tafakkurining alohida mahsuli bo'lib, uning mazmun va mohiyati asar bilan bevosita muloqotda, ya'ni uning jaranglovchi ohangini o'zlashtirish jarayonidagina namoyon bo'ladi. SHu nuqtai nazardan zamonaviy musiqiy ta'lim metodikasi talaba yoshlarda musiqa va musiqa haqidagi bilimlar, yirik shakldagi musiqa asarlarini hissiy ongli idrok etish malakalarini shakllantirish, hissiy va musiqiy tajribalarni boyitish, dunyoqarashni kengaytirishga yordam beruvchi bir qator

metodlarni tavsiya etadi. Bular musiqa haqida fikr yuritish metodi, muammoli metod, perspektiv va retrospektiv metod, musiqiy umumlashtiruv metodi, badiiy kontekst yaratish metodi, hayotiy assotsiatsiyalar metodi, polifonik metodlardir. Musiqa ta'limida musiqiy asarlarni o'rganish, idrok etishda yoshlar tomonidan musiqa asarining faqat "matni" emas, balki musiqani yaratgan ijodkorni ko'ra olishni, musiqiy asarning ichki intonatsion xususiyatini his eta olishga turtki bo'luvchi metod va texnologiyalarni qo'llanishi zamon talabi bo'lib qolmoqda. Bunda xususiy texnologiya darajasidagi pedagogik texnologiyalar musiqiy ta'lim prinsiplari talablariga mos keladi va ula talaba-yoshlarda maqsadga yo'naltirilgan ijodiy musiqiy tafakkurni jadal rivojlantirishga xizmat qiladi. Eng muhimi ta'lim jarayoni da pedagogik texnologiyalarni qo'llash asosida talabalarda yangi bilimlarni o'zlashtirishga turtki bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mirziyoev SH.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan quramiz. T.: O'zbekiston. 2017.
 2. Rajabov I. Maqom asoslari. (o'quv qo'llanma). T.: 1992.
 3. S.Qoraev. Fanlararo uzviylik va uzaro aloqani ta'minlashning o'ziga xos xususiyatlari. "Ta'lim, fan va nnovatsiya". 2016 y. 2(2), 45-50.
 4. I.Axtamov. «Maqom an'anaviy kasbiy musiqa namunalarini o'rganishda ovoz xususiyatlari». Scientific progress 2021/1/5.
- H.Nurmatov, N.Yuldasheva Textbook "Creativity of Uzbek folk music". - T.: Gafur Gulam Publishing House, 2007.